



**XORAZM TARIXINING MUHIM JIHATLARINI O‘RGANISHDA
XOTIRALARНИНГ О‘РНИ**

*Alisher Matyakubov –
Urganch Ranch Texnologiya
Universiteti katta o‘qituvchisi*

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada Xorazm tarixining o‘rganilishida xotiralarning ahamiyati va ularning tarixiy manbalar qatoridagi o‘rni tahlil qilinadi. Unda XX asrga oid Xorazm tarixi saxifalarini o‘rganishda muhim bo‘lgan xotiralar, jumladan, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Madiyor Xudayberganov, Marks Jumaniyozov, Aminboy Vapoev kabilarning asarlari tahlil qilinadi. Ushbu xotiralarda Xorazm Xalq Respublikasi, sovet hokimiyati o‘rnatalishi, jamoalashtirish, paxta yakkahokimligi, qishloq xo‘jaligi, ekologik muammolar va aholi turmush tarzi haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazm tarixi, sovet davri, manbashunoslik, memuar, iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, ekologiya, aholi.

**THE ROLE OF MEMORIES IN STUDYING THE IMPORTANT ASPECTS OF
THE HISTORY OF KHOREZM**

ABSTRACT The article analyzes the importance of memoirs in studying the history of Khorezm and their place among historical sources. It analyzes memoirs that are important for studying the pages of the history of Khorezm in the 20th century, including the works of Polvanniyaz Khodja Yusupov, Madiyor Khudaiberganov, Marx Dzhumaniyazov, Aminbay Vapayev. These memoirs contain valuable information about the Khorezm People's Republic, the formation of Soviet power, collectivization, cotton monopoly, agriculture, environmental issues, and the lifestyle of the population.

Keywords: History of Khorezm, Soviet era, source studies, memoir, economy, agriculture, ecology, population.

**РОЛЬ ВОСПОМИНАНИЙ В ИЗУЧЕНИИ ВАЖНЫХ АСПЕКТОВ
ИСТОРИИ ХОРЕЗМА**

АННОТАЦИЯ В статье анализируется значение мемуаров в изучении истории Хорезма и их место среди исторических источников. В ней анализируются мемуары, имеющие важное значение для изучения страниц истории Хорезма XX века, в том числе труды Полванияза Ходжи Юсупова, Мадиёра Худайберганова, Маркса Джуманиязова,

Аминбая Вапаева. Эти воспоминания содержат ценную информацию о Хорезмской Народной Республике, становлении Советской власти, коллективизации, хлопковой монополии, сельском хозяйстве, экологических проблемах, образе жизни населения.

Ключевые слова: История Хорезма, советское время, источниковедение, мемуары, экономика, сельское хозяйство, экология, население.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Xorazm tarixi boy va murakkab jarayonlarga boy bo‘lib, uning o‘rganilishi turli manbalarga asoslanadi. Ushbu manbalar orasida yozma yodgorliklar, arxeologik topilmalar va ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda, xotiralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy voqealarni bevosita guvohlarining xotiralari orqali o‘rganish, rasmiy manbalarda aks etmagan tafsilotlarni aniqlash va tarixiy haqiqatni yanada boyitishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, Xorazm tarixini o‘rganishda xotiralarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ular xalqning ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotini to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Darhaqiqat, XX asrda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tarixining muhim qirralarini o‘rganishda o‘sha davrda yaratilgan adabiyotlar, xotiralarda aks etgan materiallar muhim manbalardan biri hisoblanadi. Chunki, ular o‘z davrining voqeligini bevosita yoritgan va ushbu jarayonlarda ishtirok etgan, yoki ko‘rgan va eshitgan mualliflar tomonidan bayon qilingan. Ushbu guruhga kiruvchi manbalarda mualliflar o‘zining atrofida yuz berayotgan jarayonlarga kundalik shaklda yozib boradi. Bunda albatta, mualliflarning ijtimoiy mansubligi, qadriyatları va maslagi muhim rol o‘ynaydi.

METODLAR VA O’RGANILISH DARAJASI.

Mavzuning ayrim jihatlari yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, N.Sh.Raximov tadqiqotida Xorazm Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati tarixiga doir yaratilgan ilmiy adabiyotlarni tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil qilingan bo‘lib, O‘zbekistonning yaqin davr davlatchiligi tarixini o‘rganishda ilmiy-nazariy, qiyosiy tahlil va umumlashtirish uslublarini takomillashtirishga xizmat qiladi [1].

Tarixchi olimlar jamoasi tomonidan hammuallifikda yaratilgan “O‘zbekiston tarixi (Xorazm tarixi). XI-jild” kitobi Xorazm tarixining neolit davridan hozirgi qungacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga oladi. Kitob arxeologik materiallar, yozma manbalar hamda ko‘plab ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yozilgan. Asarda Xorazmning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi uзвиx xronologik izchillikda yoritilgan [2].

D.Yaqubovaning tadqiqotlarida Surxon vohasi misolida sovet hokimiysi davrida O‘zbekistonning paxta xomashyo bazasiga aylantirishi va uning natijalari, vohada paxtachilikning rivojlanishi uchun sug‘orish tizimi sohasida dastlabki harakatlari, sovet hukumatining paxta masalasidagi zo‘ravonlik siyosati, «o‘zbeklar ishi» bilan bog‘liq voqealar, mehnatga haq to‘lash jarayoni, ushbu davrda xalqimizning turmush tarzida yuz bergen o‘zgarishlar, muammolar va kamchiliklar hamda uning natijalari yoritib berilgan [3]. Ularda O‘zbekistonda sovet hokimiyatini paxta yakkahokimligini amalga oshirgan bir tomonlama

sièsati, qishloq-xo‘jaligida boshqa ekin turlarini kamaytirishning sabablari va natijalari, paxtachilikni rivojlantirishda agrartexnikani yangi turlarni sinovdan o‘tkazish natijalari o‘z ilmiy aksini topgan [4].

Mazkur maqolani tayyorlashda qiyosiy tahlil usuliga asoslanib, tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar, zamонавиј тадқиқот natijalaridan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Xorazm Xalq respublikasi tarixiga bag‘ishlangan davr adabiyotlarida muvaqqat hukumat, undan keyin tuzilgan “Yosh xivaliklar”dan tashkil topgan Xalq Nozirlar Sho‘rosi, Xorazm vohasining ma’muriy birliklari, mahalliy hokimiyat va bolsheviklar orasidagi munosabatlar, kadrlar masalasi hamda boshqaruv bilan bog‘liq masalalarga ko‘proq e’tibor berilgan. Shunday manbalardan biri Polvonniyoz Hoji Yusupovning o‘z qo‘li bilan arab imlosida yozgan “Xotiralar”i bo‘lib, unda asosan 1910-1924-yillar mobaynida Xorazmda, Turkistonda ro‘y bergen tarixiy voqealar bayon qilingan. “Xotiralar”ning o‘sha davr tarixi haqida chop etilgan boshqa kitoblardan farqi shundaki, muallif kommunistik g‘oya va aqidalardan xoli holda, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, bilgan, eshitgan, bevosita ishtirok etgan tarixiy voqea va hodisalarga haqqoniy baho berib, ro‘y-rost hikoya qilgan. Chunonchi, muallif har bir voqelikni salbiy va ijobjiy tomonlari bilan ko‘rsatib bera olgan [5].

Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, butun ittifoqda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda, xususan Xorazmda ham markazdan qabul qilingan qarorlar asosida 1925-1940-yillar davomida ijtimoiy-siyosiy jarayonda ma’muriy-buyruqbozlik tizimi to‘la qaror topdi. Bunga xalal beruvchi barcha siyosiy kuchlar jismonan yo‘q qilindi. Sovet va partiya organlari joylarda mustahkamlana bordi. Barcha amalga oshirilgan iqtisodiy va madaniy islohotlar ham aynan shu maqsadlarga xizmat qildi.

Ruzimboy Jumanazarovning “Tuyamo‘yin va tuyamo‘yinliklar” nomli kitobi Tuyamo‘yin gidrouzeli qurilishining 30 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu asarda Amudaryo daryosini boshqarish va suv omborining qurilishi haqida so‘z boradi. Kitobda mazkur loyihami amalgaga oshirishda qatnashgan muhandislar va rahbarlarning mehnati bayon qilinadi. Kitobda muallif sovet davridagi jamoatlashtirish jarayonlari 1932-1933-yillarda yuz bergen ommaviy ocharchilik sabab ancha fojiali kechganini yozadi. Unga sobiq Ittifoq rahbarlarining g‘allani chetga eksport qilish, quloq xo‘jaliklarni yoppasiga tugatishga karatilgan asossiz siyosati sabab bo‘lgan. Bu yillari Xorazm, shu jumladan Pitnak vohasiga ham qozoq millatiga mansub ko‘plab kishilar ko‘chib kelishadi va Amudaryo bo‘ylari, Tuyamo‘yin atroflarida muqim yashab qolishadi. “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” Solmirza Oltinboevning hikoya qilishicha, Xorazm vohasi aholisi ko‘chib kelganlarni iliq kutib oladi. Ularning ko‘pchiligi 1926-yili Toshsoqaning Qoratosh deb atalgan joyida vujudga kelgan kemalar to‘xtash joyi - pristanga joylashadilar. 1930-yillari bu pristan Amudaryoning hozirda Shorlovuq, deb ataladigan joyiga ko‘chiriladi. Bekat hududi ma’muriy jihatdan Said qishloq kengashiga qaraydi. Shorlovuk aholi punkti 1968-yildan alohida qishloq maqomiga ega bo‘ladi [6].

Ikkinci jahon urushidan so‘ng, Xorazm viloyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida murakkab jarayonlar yuz berdi. Urushdan keyingi yillar Xorazm viloyatida xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari, jumladan, transport, sanoat va energetikaning tez sur’atlarda o‘sishi bilan namoyon bo‘ladi. Bunga turtki bo‘lgan omillar ichida dastavval, 1953 yilda Chorjo‘y-Urganch-Ko‘ng‘irot temir yo‘lining qurib ishga tushirilishi bo‘ldi. Temir yo‘l Xorazm viloyatini mamlakatning asosiy iqtisodiy va madaniy markazlari bilan bog‘ladi.

Bu davrda Sovet hokimiysi o‘zining mintaqada amalga oshirgan paxta yakkahokimligi siyosatidan asosiy maqsad Markazni paxta xom-ashyosiga bo‘lgan talablarini qondirishdan iborat bo‘ldi. Bu borada Xorazm viloyati qishloq va suv xo‘jaligining ahvoli va uni rivojlan Tirish yo‘lidagi jarayonlarni o‘rganish Xorazm tarixining murakkab davrlaridan birini tahlil qilish imkonini beradi.

Ma’lumki, 1970-yillardan boshlab, Amudaryoda suv miqdori kamayib qoldi, zax suvlarni daryoga oqizilishi bilan daryo suvining kimyoviy tarkibi ham keskin o‘zgardi. Bu davrga kelib Quyi Amudaryo hududida suv taqchilligi sodir bo‘la boshladi. Sovet davrida Xorazm viloyati rahbarlaridan biri bo‘lgan M.Xudayberganov Amudaryo qirg‘og‘idagi viloyatlarda minglab hektar yangi yerlarda dehqonchilik ishlarining avj oldirilishi natijasida daryo suvi ehtiyojga javob bermay qolganligini yozadi [7, 101]. Qolaversa, hududdagi ekologik vaziyat qator ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni tug‘dirgandi. O‘sha davrda M.Xudayberganov aynan Xorazm viloyati partiya qo‘mitasi birinchi kotibi bo‘lib ishlagan bo‘lib, o‘z xotiralarida bu davrdagi murakkab vaziyatni shunday eslaydi: “...Orol quriyotgani bois dengiz tubidan ko‘tarilgan sho‘rning barcha dalalarga, obi-hayot manbalariga yog‘ila boshlagani sabab, 80-yillar arafasida tabiiy havzalardagi suvning tarkibini o‘zgartirib yubordi. Suвлar yaroqsiz holatga keldi. ...yaroqsiz suv iste’mol qilinishi oqibatida viloyatda turli xastaliklar ko‘paya boshlagan, sariq kasalligi odamlarni qo‘rqitib qo‘ygandi” [7, 149].

Xorazm viloyatining rahbarlaridan yana biri Marks Jumaniyazovning “Esimda qolgan onlar” kitobida muallifning hayot yo‘li va o‘zi faoliyat ko‘rsatgan muhandislik va qishloq xo‘jaligi sohalari haqidagi xotiralari aks etgan. Kitobda viloyatning qishloq xo‘jaligi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan raislar qatorida G‘ofur Sobirov, Hayitboy Jumaniyozov, Abdulla Xudoyberganov, Otajon Abdullayev, Qalandar Bekjonov, Ollabergan Matkarimov, Ismoil Bekchonov, Jumaniyoz Bobojonov, Durxonim Rahimova, Bozor Xudoyberganov, Qalandar Qurbonov, Karimboy Sa’dullayev, Sobir Qilichov, Dehqonboy Hasanov, Boltaboy Hasanov, Sobir Ollaberganov, Masharif Rahimov, Ismoil Ibrohimov, Ismoil Boltayev, Ota Jumaniyozov, Karim Rahimov, Otajon Xidirov, Olimboy Ro‘zmetov, Shomurod Jumaniyozov, Rahimboy Quryozov, To‘ra Jumaniyozov, Pak I Chun, Nam Xyun Dyun, Salay Karimov, Yusufboy Karimov, Najmiddin Shukurullayev, Pirnazar Yusupov, Tojiboy Oqmonov, Sobir Yoqubov, Sobir Otajonov, Matnazar Abdullayev, Rahimboy Abdurahimov, Zarif Xudoyberganov, Bibijon Ollaberganova, Safarboy Rahimov nomlarini qayd etib o‘tadi [8]. Ular Xorazmning og‘ir sharoitida viloyatning rivojlanishiga, 1960-yillar o‘rtalarida “mash’al Xorazm” deb nom olishiga zamin yaratganlar sifatida tilga olinadi.

Muallif 1980-yillardagi voqealarni eslar ekan, quyidagilarni bayon qiladi: “Xiva tumanidan Urganch, Shovot tumaniga chiqadigan aylanma yo‘lning ikki tarafi obodonlashtirildi. Bu yo‘l shahar va tuman, Urganch-Xiva yo‘lini birlashtirgan aylanma yo‘l Urganch shahrining janubiy chegarasi qilib belgilandi va muammolar hal qilindi.

Viloyat paxta tayyorlash sanoati korxonasi Yuqori Bog‘ qishlog‘ida qurilayotgan sanatoriysiga Qирг‘изиёп kanali yoqasidan o‘tadigan 8-10 kilometr yo‘lni o‘z hisobiga bitkazib berdi. Bu sanatoriya yurak kasalliklari shifoxonasiga aylantirildi. Amudaryo bo‘ylarida gazchilarning 400 hektar yordamchi xo‘jaligi, 167-qurilish trestining dam olish maskani, viloyat yo‘llar boshqarmasinng yordamchi xo‘jaligi bor edi. Ana shu tashkilotlar xo‘jaliklariga boradigan yo‘llarni asfaltladilar. Bu yo‘llar xo‘jaliklarimiz yerlaridan o‘tganligi uchun dehqonlarimizga qulaylik yaratildi. Bu ishlarni bajarishda suv xo‘jaligi tashkilotlarining rahbari Islom Eshchonovichning xizmati katta bo‘ldi. Shunday qilib, 1987-yilning ikkinchi yarmiga kelib daryo bo‘yidagi yerlarimizga boradigan yo‘llar obod bo‘ldi” [8, 223-224].

Aminboy Vapoevning “Xotiramda jonlangan o‘tmish” asarida muallifning butun hayoti Gurlan tumanida o‘tgani va u yerdagi rahbarlik vazifalaridagi tajribalari haqida hikoya qilinadi. Kitobda ikkinchi jahon urushi, urushdan keyingi tiklanish davri va mustaqillik yillariga oid voqealar bayon etilgan. Xotiralar oddiy va samimiyl tilda yozilgan bo‘lib, bugungi avlodga o‘sha davr qiyinchiliklari va ularni qanday yengib o‘tilganini tushunishga yordam beradi.

Kitobda keltirilgan ushbu ma’lumotlar e’tiborga molik: “Xudargan Rahimov, xivalik Devonov degan tuman rahbarlaridan so‘ng, 1953-yilda viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i bo‘lib ishlagan Abdulla Jumaniyozov Gurlan tuman firqa qo‘mitasiga birinchi kotib bo‘lib ishga keldi. Bizlarning Ordjonekidze nomidagi jamoa xo‘jaligiga o‘sha vaqtida Abdurahim Rahimov raislik qilardi. U kishini «Xorazm haqiqati» gazetasida tanqid qilishgani bois, raisimiz vazifasidan bo‘shatildi. Kasbi hisobchi bo‘lgan Madamin Avezov rais qilib tayinlandi. Uni hamqishloqlarimiz Avaz kuchanchining o‘g‘li deya atashardi. Madamin Avazov rais bo‘lganidan so‘ng, qishloqda keskin o‘zgarishlar bo‘la boshladi. U yog‘och ustalarini boshqa qishloqlardan chaqirtirib, ot arava yasatishni yo‘lga qo‘ydi. Qoramom, terak daraxtlaridan 9 ta brigadaga bittadan ot arava yasattirib berdi. Chunki o‘sha vaqtida dehqonchilikda arava eng zarur transport vazifasini bajarardi. Ustalar bizning uyda arava yasashgani bois otamning brigadasiga ikkita arava berishdi.

Shu bilan birga, Turkmanistonning Ko‘hna Urganch shahridan kolxoz uchun 30 ta ot sotib olib kelindi. Yangi yer uchun omochlar yasaldi. Bu esa kolxozchilarning mehnat unumdoorligini oshirdi. Shu sabablarga ko‘ra, Madamin Avazov raislik paytida jamoa xo‘jaligi tumandagi ilg‘or xo‘jalikka aylandi [9, 57-58].

XULOSALAR.

Xorazm tarixining murakkab va rang-barang jihatlarini o‘rganishda xotiralar muhim manba hisoblanadi. Ularda mualliflarning shaxsiy kuzatuvlari, bevosita guvoh bo‘lgan voqealar aks etadi. Ayniqsa, Xorazm Xalq Respublikasi davri, sovet hokimiyatining o‘rnatalishi va keyingi siyosiy jarayonlarni tushunishda xotiralar beqiyos ahamiyatga ega. Polvonniyoz Hoji

Yusupov, Madiyor Xudayberganov, Marks Jumaniyozov, Aminboy Vapoevlarning xotiralari ushbu davrning siyosiy va ijtimoiy hayotini yanada aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Ushbu asarlarda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, iqtisodiy islohotlariga oid muhim tafsilotlar berilgan. Xotiralar shuningdek, oddiy xalq hayoti, ularning kundalik tashvishlari va muammolarini yoritishda ham katta rol o‘ynaydi.

ADABIYOT RO‘YXATI:

- [1] Рахимов Н.Ш. Хоразм Халқ Шўролар Жумҳурияти тарихини ўрганиш муаммолари ва ёндашувлар (1920-2020 йиллар). Монография/ Т.: “Lesson Press” нашриёти, 2022.
- [2] Ўзбекистон тарихи (Хоразм тарихи). 11-жилд. / Мухаррир: А.С.Сагдуллаев. Тошкент, 2023.
- [3] Яқубова Д. Ўзбекистонда пахта яккаҳокимлигининг ўрнатилиши ва унинг натижалари. – Т.: “Tafakkur avlodi”, 2020.
- [4] Яқубова Д. Совет ҳокимиюти даврида пахтачилик соҳасида моддий маблағ сарфлаш имкониятлар ва унинг натижалари // Academic research in educational sciences, Volume 2, Issue 6, 2021. – Б. 1377-1383
- [5] Полвонниёз Ҳожи Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи. – Урганч: Хоразм, 2000.
- [6] Жуманазаров Р., Собиров А. Туямўйин ва туямўйинликлар. Урганч: “Хоразм”, 2003.
- [7] Худайберганов М. Синовларда кечган умр. – Т.: А.Қодирий, 1997.
- [8] Жуманиёзов М. Эсимда қолган онлар, Тошкент, “Musiqa” 2008.
- [9] Вапоев А. Хотирамда жонланган ўтмиш. Тошкент: “Истиқлол”, 2013.